

STATISTIKA VA UNING TARIXIY BOSQICHLARI

Sodiqova Sevara Julli qizi

O'zbekiston milliy universiteti Tarix fakulteti 2- bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14227738>

Annotatsiya. Mazkur maqolada statistika va uning tarixiy bosqichlari haqida so'z boradi. Ilk bor statistikaning shakllanishi hamda u bilan bog'liq munosabatlarga batafsil to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: statistika, savdo-sotiq, hunarmandchilik, iqtisodiy statistika, axborot yaratish.

STATISTICS AND ITS HISTORICAL STAGES

Abstract. This article talks about statistics and its historical stages. For the first time, the formation of statistics and related relations were discussed in detail.

Key words: statistics, trade, crafts, economic statistics, information creation.

СТАТИСТИКА И ЕЕ ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ

Аннотация В данной статье говорится о статистике и ее исторических этапах.

Впервые подробно рассмотрено формирование статистики и связанные с ней отношения.

Ключевые слова: статистика, торговля, ремесла, экономическая статистика, создание информации.

Ilk bor statistikaning vujudga kelishi amaliy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan. Qadim zamonlardayoq qurolli kuchlarga layoqatli kishilar sonini bilish, soliqqa tortish obyektlarini belgilash zarurati tug'iladi. Bu esa davlatni aholi soni va tarkibida bo'layotgan o'zgarishlar ustidan kuzatishlar olib borishga undagan.

Qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, sanoat va boshqa sohalar hamda iqtisodiy aloqalarning taraqqiy etishi xo'jalikka oid hodisa va amallar ustidan muntazam ravishda kuzatish olib borishni taqazo etgan. Natijada baholar va savdo-sotiq statistikasi, mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimoti, statistikasi va iqtisodiy statistika tarmoqlari vujudga kelga va rivoj topgan.

Bozor munosabatlari va aholi tabaqalari orasida o'zaro aloqalar kenggayishi bilan rivoj topgan iqtisodiyotga aralashuvi obyektiv zarurat bo'lib qoladi. Bu esa, o'z navbatida, yangi ma'lumotlarni to'plash, iqtisodiy hayotning hamma muhim tomonlarini qamrab olgan iqtisodiy axborot yaratish ehtiyojiga sabab bo'ladi.

Shu bilan birga davlatlar orasidagi iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishi, butun jahon xo'jaligining shakllanishi va taraqqiy etishi ayrim milliy iqtisodiyot va butun jahon xo'jaligi tovar va xizmatlar hamda daromadlarni yaratish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini har taraflama tasvirlaydigan batafsil hisob-kitob yuritish talab qilinadi. Hozirgi kunda bu masala ayrim milliy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Natijada milliy hisobchilik shakllanishi va rivoj topmoqda.

Ammo, ilk bor statistik davlatni boshqarish uchun qurol sifatida sakllangan va rivojlanib borgan bo'lsa ham, shu bilan bir vaqtda ko'plab voqealarni, vaqtlarni miqdoriy jihatdan ham ilmiy jihatdan juda qiziqarli materiallar ham jamg'arildi. Bu ishning dastlabki onlaridayoq sezgir kuzatuvshi tarqoq butunlay tasodifiy tuyulgan o'g'il yoki qiz bola tug'ilish soni, nikohlanish, yoki u bu yoshda o'lish soni va shularga o'xshash hodisalarda ma'lum tartib qoidalar borligini payqab hayratda qoladi. Natijada buning sabablarini anglash ishtiyoji kishida uyg'onib, ularni tushuntirish yo'llarini izlab topish ehtiyoji tug'iladi. Ana shu ehtiyojni qondirish uchun statistika xizmat qila boshlashi bilan birga ilm-fan sohasiga aylanadi.

Amaliy faoliyatda to'plangan tajribalarni umumlashtirish yo'li bilan dastlab davlatni boshqarish uchun zarur ma'lumotlar to'plash, qayta ishlash tahlil qilish va tahli qilish qoidalari, tartiblari, usullari yararildi. Statistika ana shunday fan sifatida qaralib yangi izlanishlar asosida boyib bordi.

Ularning mohiyati va usullarini takomillashtirishda matematik usullar, qurollar va yangi nazariyalardan foydalanish juda qo'l keldi, chunki statistika ham matematikaga o'xshab sonlar, miqdorlar bilan shug'ullanadi, ammo shunday toifalari bilan-ki, ular sifatga ega bo'lib, ommaviy hodisalarni o'lchash natijasida hosil bo'ladi. Hozirgi vaqtda u deyarli barcha fan va texnika sohalarida, tajriba-eksperimentlarida, fizika, kimyo, biologiya, arxeologiya, tarix, agronomiya, tibbiyot, psiologiya, sotsiologiya, pedagogika, tilshunoslik, harbiy ishlar va hatto san'atda hamda musiqa bastalashda qo'llanmoqda.

Shunday qilib, Statistika yuzaki qarashda oddiy so'z bo'lsa ham, lekin ko'p qirrali mazmunga ega.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotni ifodalashda statistika atamasi juda ko'p ishlatiladi. Iqtisodchi mutaxassislar esa korxonalar, tashkilotlar faoliyatida statistik ko'rsatgichlardan muntazam foydalaniladi. Aslida "Statistika" atamasi lotincha "Status" so'zidan olingan bo'lib, hodisaning holati, ahvoli ma'nosini anglatadi. Bu so'z asosida bir qancha shunga o'xshash so'zlar paydo bo'lgan. Jumladan, italyancha "Stato" so'zi ham undan kelib chiqqan bo'lib, "davlat" ma'nosini bildiradi. Keyinchalik statistika deganda ijtimoiy – iqtisodiy hodisalarning turli tomonlarini ifodalaydigan ma'lumotlar tushilinadi.

Lekin, statistika soʻzini nemis olimi Gotfrid Axenval fanga kiritgan. U 1746–yilda Germaniya universitetlarida oʻqitildigan “Davlat yuritish” fanini “Statistika” deb atashni kashf qilgan. Statistikaning paydo boʻlishi uzoq tarixiy ildizga ega boʻlib, barcha tarixiy formatsiyalarda namoyon boʻladi va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan birga taraqqiy etadi va takomillashadi.

Statistik hisoblarning rivojlanish toʻgʻrisida maʼlumotlar qadimgi Hindiston, Xitoy, Misr va boshqa davlatlarda yaratilgan tarixiy asarlarda oʻz aksini topgan. Davlatlarning paydo boʻla boshlashi bilan, davlat yigʻimlarini toʻplash uchun, yer egalarida qancha yer borligini, undan qancha daromad olishini, urush olib borish uchun qancha aholi va shundan qanchasi katta yoshdagi erkaklar va boshqalarini bilish zaruriyati tugʻiladi. Bu ishlar qadimgi statistik ishlardan farq qiladi, yaʼni u faqat roʻyhatga olish emas, balki statistik hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab etadi va ularni boshlanganligidan dalolat beradi.

Statistik tahlillarning dastlabki tavsiflari VIII–XIII asrlar orasida islom olamida oltin asrida yashagan matematiklari va kriptograflariga borib taqaladi. Al-Xalil (717–786) “Kriptografik xabarlar kitobi” ning muallifi boʻlib, unda oʻrin almashish va birikmalarni birinchi qoʻllashish usullaridan biri mavjud boʻlib, unli va unsizlik barcha arab soʻzlarini sanab oʻtgan.

Al-Kindining “Kriptografik xabarlarni dekodlash toʻgʻrisida”gi qoʻlyozmasida dekodlash uchun statistik xulosaning dastlabki namunasini uchratish mumkin. Ibn Adlan (1187–1268) keyinchalik chastota tahlilida namuna hajmidan foydalanishga muhim hissa qoʻshadi.

Statistika fani XVII asrning oxirlariga kelib, mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. Shu davrda “Siyosiy arifmetika” degan fan vujudga keladi. Uning asoschilari ingliz olimlari U. Petti (1623–1687) va Jon Graund (1620–1674) boʻlganlar. U. Pettini oʻz vaqtida iqtisodning “otasi” va maʼlum darajada statistikaning ixtirochisidir, deb atashgan.

Statistikaning rivojlanishiga munosib hissa qoʻshgan belgiyalik olim Lamber Adolf Jak Kettle (1796–1874) va uning maktabidir. A.Kettle statistika boʻyicha 65 ta asar yozgan. P.S. Laplasning shogirdi A.Kettle oʻz zamonasining olimlari singari matematika faniga katta ahamiyat bergan. U oʻzining asosiy fikrini “Inson va uning qobiliyatlarining rivojlanishi yoki sotsial fizika tajribasi” asarida bayon etgan. Yirik iqtisodchi olimlar taʼbiri bilan aytganda, A.Ketlening xizmati shundaki, u ommaviy hodisalarning qonuniyatlarini ochib berdi. Lekin, oʻzi ulaming tabiatini tushunmagan. A. Ketlening keng tarqalgan nazariyalaridan biri “0” oʻrtacha kishi” nazariyasidir.

Uning fikricha, oʻrtacha miqdorlar hamma vaqt doimiy miqdorlar taʼsirida paydo boʻladi, toʻplam birliklarining oʻrtachadan farqi tasodifiy sabablarga bogʻliq emish. Har qancha harakatga qaramasdan “0” oʻrtacha kishi” aniqlanmadi va aniqlanishi mumkin emas.

Statistika organi 1756-yilda Shvetsiyada tashkil qilingan. Fransiya 1772-yildan butun mamlakat bo'yicha aholining harakatlari to'g'risida hisobotlar tuzish boshlanadi va 1801-yilda Fransiya ichki ishlar vazirligida statistik byuro tashkil qilinadi. Angliyada 1801-yilda aholi ro'yxati o'tkazilib, 30-yillarda sanoat vazirligi qoshida statistika departamenti barpo etiladi.

Insoniyatning rivojlanishi va statistik ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarning oshib borishi statistikani markazlashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu masalaning zarurligi birinchi xalqaro statistiklar kongressida (1853-yil, Bryussel) ham ta'kidlab o'tildi va har bir davlatda markaziy statistika komissiyalarini tuzish taklif etildi. Hammasi bo'lib o'nta kongress o'tkazilgan. 1880-yillarga kelib davlat statistika organlarini rasmiy birlashtirish mumkin emasligini tushunib yetgan mutaxassislar statistiklar "ochiq" assotsiatsiyasini tuzish taklifi bilan chiqdilar va shunday tashkilot – Xalqaro statistika instituti – 1887 yil Rimda tuzildi. Bu birlashmaning (bugungi kunda ham faoliyat ko'rsatmoqda) asosiy maqsadi davlatlarning statistik ma'lumotlari o'zaro taqqoslama bo'lishini ta'minlash va xalqaro statistik to'plamlarni nashr etishdir. Hech qanday shubha yo'qki, bu maqsadga erishildi va erishilmoqda.

Ilmiy statistikaning rivojlanishi bilan bir qatorda statistika amaliyoti ham paydo bo'la boshlaydi. Hayot tobora qiyinlashib borganligi sababli, davlatlar statistik organlarni tuzishga majbur bo'ladilar.

Sobiq Ittifoq davrida ijod qilgan va statistikani rivojlanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan statistik olimlar: V.N.Tatishev (1686–1750), K.I.Krilov (1869–1737), D.P.Juravskiy, Semenov Tyan-Shanskiy (1827–1914), Yu.E.Yanson (1835–1893), A.I.Chuprov (1842–1908), V.I.Ulyanov (1870–1924); A.A.Chuprov (1874–1926), A.A.Kaufman (1864–1919) va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida statistikaning rivojlanishida va uni o'zbek xalqiga o'rgatishda diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilgan. Birinchi "Statistika" kafedrasini 1932-yilda Toshkent, keyinchalik Samarqand va boshqa shaharlarda tashkil etilgan. Hozirgi vaqtda deyarli barcha iqtisodiy institut va fakultetlarda statistika kafedralari mavjud. Ularda o'zbek statistikasini yaratgan va yaratayotgan ajoyib olimlar faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, bu fanni O'zbekistonda rivojlantirishda professorlar N.Soatov, E.Akramov, I.Ermatov, X.Nabiyev, S.Sirojiddinov, Y.Abdullayev, R.Alimov kabi olimlarning xizmatlari yuqori bo'lgan. Statistika o'z obyektivlarini o'rganadigan fan bo'lib, amaliy faoliyatda ham mavjud. Mustaqillikning dastlabki yillaridan har bir firma, korxonalardan ya'ni barcha xo'jalik yurituvchi subyektlardan boshlab, tuman, viloyat va mamlakat miqyosida barcha iqtisodiy-ijtimoiy voqea, xodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va oylarni saqlash statistika organlariga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1992-yil 5-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlatkomitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-449-sonli farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Istiqbolini belgilash va statistika davlat komiteti tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 15-maydagi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolini belgilash va statistika davlat qo'mitasini Makroiqtisodiyot va statistika vazirligiga aylantirish to'g'risidagi PF-1870-sonli farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tashkil etilgan.

2002-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi "Davlat statistika to'g'risida" gi qonuni (yangi tahrirda) qabul qilindi. Bu qonunda Davlat statistika organlarining asosiy vazifalari ijtimoiy-iqtisodiy xodisalar, jarayonlar, hamda ularning natijalari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish va tahlil etish bir vaqtda davlat organlari, yuridik shaxslar, davlat muassasalari, xalqaro tashkilotlar, shuningdek jamoatchilikni belgilangan tartibda statistika va ma'lumotlar bilan ta'minlash ham yuklatilgan.

2002-yil 24-dekabrda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risi" farmoni qabul qilindi. Bu Farmonga asosan Respublika Iqtisodiyot vazirligi va alohida O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi tashkil etildi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 7-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2021-yil 26-iyunda ma'qullangan "Rasmiy statistika to'g'risida" qonun qabul qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Rasmiy statistika to'g'risida" gi qonunni 2021-yil 13-avgust kuni imzoladi.

Hujjat Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasida e'lon qilindi. Davlat statistika qo'mitasi sharhida qonun bilan mazkur sohaga kiritilganyangiliklar sanab o'tilgan. Unda, shuningdek, 2002-yilda qabul qilingan "Davlat statistika to'g'risida"gi qonun xalqaro standartlarga to'laqonli javob bera olmasligini qayd etilgan. Yangi Qonun 7 bob va 44 moddadan iborat. Hujjatda rasmiy statistika O'zbekistondagi iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hodisalar va jarayonlarni hamda boshqa hodisalar va jarayonlarni tavsiflovchi, tarqatadigan statistik ma'lumotlardan iboratligi aniq belgilab qo'yilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, statistika nimaga kerakligini bilish uchun uning mohiyatini to'liq tushinib yetish talab etiladi. Vaqt o'tish bilan statistikaning mohiyati va zaruriyati o'zgarib boradi. Agarda, statistika paydo bo'lish paytlarida davlat ehtiyojlari qondirgan bo'lsa, sobiq ittifoq davrida asosan davlatning yillik va besh yillik rejalarini bajarilishini nazorat qilish bilan shug'ullangan.

Hozirgi kunda, ya'ni bozor iqtisodiyoti sharoitida, mehnat taqsimoti rivojlangan va qiyinlashib ketgan, eng asosiysi yuqori raqobat shaklida ish olib borish sharoitida nafaqat davlatga, balki har bir kompaniyaga, firma yoki korxonaga, hatto har bir tadbirkorga dunyoning bir chekkasida qanday o'zgarishlar bo'layotganligi yoki hodisa va voqealarning o'zgarishi prognozi haqida ma'lumot zarur. Bu ro'y berayotgan yoki beradigan hodisalarning hajmi, o'zgarish darajasi va istiqbolni tushuntiruvchi raqamlarni yetkazib bera olishi mumkin. Bu statistikaning amaliy mohiyatidir.

REFERENCES

1. Broemeling, Lyle D. (1 November 2011). An Account of Early Statistical Inference in Arab Cryptology. The American Statistician. – Pp. 255-257.
2. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. Darslik. – Toshkent: "NOSHIR", 2010.
3. Saidboboeva G.N. The History of Construction of Some Electric Power Station in Uzbekistan SSR // International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities. – Barcelona, Spain. 2023. – Pp. 5-7.
4. Shadiyev X.A., Habibullayev I.H, Mahmudov B.M., Rashitova N.X., Umarova M.A. Statistika. Darslik. – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2013. – 382 b.
5. Shadiyev X., Xabubullayev I. Statistika. Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2013. – 382 b.
6. Soatov N.M., Tillaxo'jayeva G.N. Statistika. Oliy o'quv yurtlar uchun darslik. – Toshkent, 2006.
7. Xudayberdiyev U. Statitika. O'quv qo'llanma. – Samarqand SamISI, 2019. – 265 b.
8. www.gazeta.uz.